



NOTIQLIK SAN'ATIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH USHLUBLARI

Umidxon Boltaboyeva

*Qo'qon davlat universiteti, "San'atshunoslik"
kafedrası professori*

Annotatsiya

Ushbu maqolada notiqlik san'atining nazariy-metodologik asoslari va nutqni rivojlantirish ushlublari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Nutq faoliyatini shakllantirishda taqlidlar, turli xil mashqlar, tahlil va interaktiv metodlarning samaradorligi dalillar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar:

Notiqlik san'ati, ritorika, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, nutq faoliyati, interaktiv metodlar, nutq texnikasi, didaktik ushlublar.

Zamonaviy ta'lim tizimida har bir shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, notiqlik san'ati insonning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim vosita hisoblanib, uning nutqi orqali o'zining fikrlari mantiqiy, izchil va ta'sirchan holda ifodalab beriladi.

Ma'lumki, notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroyli, jozibali bo'lishi shart. Chiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumlarar jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi. Ushbu ma'noda mana bu satrlar ancha o'rinli aytilgan: «Notiqlik avvalo chiroyli gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroyli bo'lishi hali yetarli emas, har qanday be'mani safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi».¹

Nutqni rivojlantirish masalalari nafaqat tilshunoslikda, balki psixologiya, pedagogika va psixolingvistika fanlarida ham kesishgan nuqtada o'rganiladi. Shu sababdan ushbu maqolada nutqni rivojlantiruvchi ushlublar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Notiqlik san'ati kelib chiqishi jihatidan qadimgi ritorika ilmiga borib taqaladi. O'sha davrda antik davr mutafakkirlari nutqning uch asosiy komponentini ajratib ko'rsatgan: **Logos** – mantiqiy asoslanganlik, **Ethos** – notiq shaxsining ishonchliligi, **Pathos** – tinglovchiga emotsional ta'sir

¹ U.Boltaboyeva. Sahna nutqi. Darslik. – T. Innovatsion-Ziyo. 2023 y.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda nutq faoliyati kognitiv jarayonlar, ya'ni (fikrlash, xotira), lingvistik vositalar (leksika, grammatika), paralingvistik vositalar (intonatsiya, mimika)komponentlar orqali izohlanadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan esa nutq – bu murakkab psixik faoliyat bo'lib, u nutqni rejalashtirish, shakllantirish va uni amalga oshirish bosqichlaridan iboratdir.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nutqni rivojlantirish jarayoni til birliklarini ongli ravishda o'zlashtirish bilan bog'liq. Bu jarayonda - lug'at boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, stilistik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Lingvistik kompetensiya bu - nutqning aniqligi va ravonligini ta'minlaydi.

Bu uslub ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslanadi. Unda o'quvchi namunaviy nutq modellari orqali nutqiy ko'nikmalarni egallaydi. Bu usul ayniqsa boshlang'ich bosqichda samaralidir.

Mashq qilish orqali nutq avtomatizatsiyasi yuzaga keladi. Takroriy faoliyat natijasida nutq tezligi, aniqligi va ifodaviyligi oshadi. Nutq tovushlari insonning nutq organlari ishtirokida hosil bo'ladi. Ularning har biri hosil bo'lish o'rni va xususiyati bilan bir-biridan ajralib turadi. Nutq tovushlari so'zning bir bo'laki bo'lib, uning ajralmas qismidir. Inson talaffuz orqali bir-birini tushunadi, eshitadi. Ana shu eshitiladigan, talaffuz qilinadigan tovushlar nutq tovushlari deb yuritiladi. Nutq tovushlari unli va undosh tovushlarga bo'linadi. Ular bir-biri bilan uyg'unlashmasa, hech qanday so'z yoki talaffuz hosil bo'lmaydi.²

Mashqlar biz quyidagi turlarga bo'lib olamiz: reproduktiv mashqlar, produktiv mashqlar, ijodiy mashqlar

Bu uslub nutqning strukturaviy va mazmuniy jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Tahlil qilish orqali nutqdagi kamchiliklar aniqlab olinadi va ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqiladi.

Interaktiv yondashuv haqida gapiradigan bo'lsak, u konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslanadi, ushbu metodlar esa o'quvchini faol subyektga aylantira oladi.

Uning asosiy shakllari - debat va diskussiya, "case study", rol o'ynash va prezentatsiyadan iboratdir.

Ushbu usullar kommunikativ kompetensiyani kompleks rivojlantirib boradi.

Nutq texnikasi notiqning fiziologik va fonetik tayyorgarligini ifodalab, u o'z ichiga **nafas olish texnikasi** (diafragmal nafas), **artikulyatsiya** (tovushlarni aniq talaffuz qilish), **intonatsiya** (ohangdorlik), **pauza** (mantiqiy bo'linish)larni qamrab oladi.

Bular orqali nutqning ta'sirchanligi oshib boradi.

Kommunikativ kompetensiya esa lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya va strategik kompetensiya komponentlaridan iborat.

Ushbu kompetensiyalar nutqni turli tarzda ijtimoiy vaziyatlarda mos ravishda qo'llash imkonini beradi.

² U.Boltaboyeva. Sahna nutqi. Darslik. – T. Innovatsion-Ziyo. 2023 y.

Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, nutqni rivojlantirishda yagona uslub yetarli emas. Kompleks yondashuv – ya’ni taqlidlar, turli mashqlar, tahlil va interaktiv metodlarning uyg’unligi eng samarali natijani bera oladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish (multimedia, raqamli platformalar) nutq rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, notiqlik san’atida nutqni rivojlantirish ko’p qirrali jarayon bo’lib, u lingvistik, psixologik va pedagogik omillar uyg’unligini talab etadi. Nutqni rivojlantirish uslublarini tizimli ravishda qo’llash shaxsning kommunikativ salohiyatini oshirib boradi va uning ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. To’xtasinov A. Sahna nutqi asoslari. — Toshkent: San’at nashriyoti, 2017. — 215 b.
2. Karimova D. Ovoz madaniyati va so’z san’ati. — Toshkent: O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashriyoti, 2019. — 180 b.
3. Qodirov B. Aktyorlik mahorati va nutq texnikasi. — Farg’ona: FarPI nashriyoti, 2020. — 240 b.
4. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
5. Hojiyev A. *O’zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: O’qituvchi, 2002.
6. Qo’ng’urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.
7. U.Boltaboyeva. Sahna nutqi., Darslik-2023y. Toshkent-Innovatsion-Ziyo/